

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2023 yilning 1 iyul holatiga 17 060 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2022 yilning shu davriga nisbatan 80,3 foizni tashkilotgan).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2023 yilning yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)

2021-yil




2023- yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 69,4 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 11,4 birlikni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyun holatiga 2 101 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 80,6 foizni tashkil etadi.

2022-yil



2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Qurilish



Boshqalar



2023-yil





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 30,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (26,3 %), sanoat sohasida (18,9 %) va qurilishda (4,1 %) tashkil etilgan.

2023 yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 4 645,8 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 73,6 %) o'zlashtirildi va 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 117,9 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 1 842,5 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 95,0 %) va 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 260,5 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 24,0 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 2 628,4 mlrd. so'mlik ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 57,6 %) 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 717,9 mlrd. so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 19,7 %) 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 34,8 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 38,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 253,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 60,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 18 351,9 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 97,6 %) 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 114,8 foizni tashkil qildi;


– avtomobil transportida 41 585,0 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 95,2 %) 2022 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 foizni tashkil qildi;

2023 yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 69,4 foizni, sanoatda – 24,0 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,4 foizni, qurilishda – 95,0 foizni, eksportda – 38,4 foizni tashkil qilgan.



Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (775,8 mlrd. so'm), Paxtakor (231,7 mlrd. so'm), Forish (291,4 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (677,8 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (509,8 mlrd. so'm), G'allaorol (288,5 mlrd. so'm) va Zomin (251,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2023 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Jizzax viloyati	24,0	95,0	57,6	98,4
<i>shahar:</i>				
Jizzax	40,1	93,5	36,5	99,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	100,0	67,4	99,1
Baxmal	100,0	100,0	63,9	99,7
G'allaorol	1,6	100,0	75,5	98,6
SharofRashidov	56,5	100,0	82,9	99,2
Do'stlik	17,1	100,0	67,9	99,1
Zomin	46,9	76,3	68,1	94,8
Zarbdor	30,5	100,0	69,2	98,5
Zafarobod	5,8	99,9	69,7	98,2
Mirzacho'l	100,0	100,0	58,3	97,9
Paxtakor	60,9	100,0	64,5	98,2
Forish	94,6	100,0	74,2	98,3
Yangiobod	100,0	100,0	81,5	99,9

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (17,1 %), Zafarobod (5,8 %), G'allaorol (1,6 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (93,5 %) va Zomin (76,3 %), Zafarobod (99,9%) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (36,5 %) kam bo'lishiga hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.